

**O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA NIKOH
MAROSIMLARINING TARIXIY SHAKLLANISHIGA OID SO‘ZLAR
TADQIQI**

*O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti*

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi nikoh marosimlari kelib chiqish va shakllanishiga oid so‘zlar tadqiqiga to‘xtalangan. O‘zbek va qoraqalpoq nikoh to‘yi marosimlaridagi urf-odatlar , irim-sirimlar haqida so‘z borgan.*

Kalit so‘zlar: *Alqovchi aytimlar, oyna ko‘rsatar, soch siypatar, it irillar, kampir o‘ldi, chimildiq.*

Abstract: *The article focuses on the study of words related to the origin and formation of marriage ceremonies in the Uzbek and Karakalpak languages. The customs and rituals of Uzbek and Karakalpak wedding ceremonies were discussed.*

Key words: *Chattering sayings, mirror showing, hair brushing, dog barking, old woman died, tick.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению слов, связанных с происхождением и формированием брачных обрядов в узбекском и каракалпакском языках. Обсуждались обычаи и ритуалы свадебных обрядов узбеков и каракалпаков.*

Ключевые слова: *болтовня, показ зеркала, расчесывание волос, лай собаки, старуха умерла, клещ.*

O‘zbek va qoraqalpoq nikoh to‘yi marosimida nikohdan so‘nggi bosqich, asosan, turli-tuman urf-odat va irim-sirimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda kelin va kuyov sha‘niga qaratilgan alqovchi aytimlar, oyna ko‘rsatar, soch siypatar, it irillar, kampir o‘ldi va hokazo singari qator urf-odatlar amalga oshirilganki, ulardan aksariyati Alpomish dostonida ham badiiy tasvirlangan. Nikohdan so‘ng kelin-kuyovga atalgan o‘tovda ular uchun chimildiq tutilgan. **Chimildiq** kelin-kuyov uchun yangicha hayot, oilaviy turmushga kirib borish eshigi hisoblanadi. *O‘zbek tilining izohli lug‘atida* chimildiq: Nikoh to‘yining birinchi kechasi kuyov bilan kelinning boshqalardan xoli o‘tirishi va tunashi uchun uy burchagiga tortilgan oq chodir deb izohlangan bo‘lsa, taniqli o‘zbek folklorshunosi A.Musaqulov Chimildiq □ kelin-kuyovni magik himoya qilish, ularning baxtli, serfarzand bo‘lishi uchun yasalgan ritual buyum , □ deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, kelin-kuyovga chimildiq tortish jarayoni o‘ziga xos irim-sirimlar bilan ritual tarzda kechadi. Bu jarayonda qatnashayotgan yangalarning bir nikohli, uvali-juvali ekanligiga alohida e‘tibor qaratiladi. Odatda, befarzand yoki nikohi buzilgan, beva ayollarga chimildiq tortish uchun ruxsat etilmaydi. Ularning boshiga tushgan ko‘rgulik bu yosh oilaning boshiga tushishidan irim qilinadi. Umuman aytganda, xalqimiz orasida chimildiq bilan bog‘liq qator urf-odatlar, e□tiqodiy qarashlar va irimlar shakllangan. Chimildiqqa, odatda, birinchi bo‘lib kuyov, keyin kelin kiritilgan. Ammo bunda kuyovnavkarlar kuyovni chimildiqqa kirgizmoqchi bo‘lib turganlarida, bir necha xotinlar kampir o‘ldi rasmini qilishgan.

“**Kampir o‘ldi** marosimi nikoh to‘yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba’zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan. Alpomish dostonida u kelin, ya’ni Barchinning uyida amalga oshiriladi. Bu udumga ko‘ra, bir kampir o‘zini o‘lganga solib, kuyovning yo‘liga yotib oladi. Kuyov unga biror narsa hadya qilgach, kampir tirilib , uzoq vaqt uxlaganini va uyqusida tush ko‘rganini, tushida quyosh va oyni, yulduzlarni ko‘rganini aytadi. Bu tush ramziy ma’noda kelin-kuyovni va ularning bo‘lajak farzandlarini anglatadi. Alpomish dostonida Kampir

o'ldi marosimi quyidagicha tasvirlangan: Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov no'karlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar «kampir o'ldi» bo'lib, o'lganiga bir nima olib, «it irillar» degan rasmini qilib, bunga ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqda o'tirib, oldiga dasturxon solib, qo'ylarning to'shini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo'yib, xo'p eb to'yib, kuyov no'karlarga to'ppi, ro'mol, sarpoylar berib, hammasi o'z rasmi-qa'dasini qilib, kuyov no'karlar chiqib, mazgiliga □ joyjoyiga qarab ketdi. Barchinni bekning qoshiga olib kelmoqchi bo'lib, ko'p qizlar o'rtaga olib, baxmal qoplagan oq kigizga solib, «qadimgi rasmimizni qilamiz», □ deb qizlar ko'tarib, *ko'targani quvvati kelmay halak bo'lib, uytib-buytib olib kelib, Hakimbekning qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, choch siypatar, qo'l ushlatar ini qilib, bir necha yangalar sho'xlik qilib turib: «nima qilsangiz, ixtiyor o'zingizda», deb sho'xlik bilan bir nechasi javob berib, har qaysisi o'z mazgiliga ketdi. Bu o'tov ikkoviga tanho tegib qoldi.* Ko'rinadiki, kampir o'ldi udumidan so'ng it irillar degan rasm amalga oshirilgan. Bunga ko'ra, bir necha ayollar itga o'xshab irillab, kuyovning chimildiqqa kirishiga ruxsat qilishmagan. It holatiga kirib kuyovning oldini to'sishgan. Kuyov ularga nimadir hadya bergach, xotinlar uning chimildiqqa kirishiga qarshilik ko'rsatishmagan. Bunda it himoyachi ruh ramzini ifoda etgan.

It obrazi qadimgi turkiylar mifologiyasida muhim o'rin tutadi. Hatto u totem sifatida qaraladi. Qadimgi kishilarning e'tiqodiga ko'ra, it narigi dunyo □ o'liklar mulkiga kirish eshigining qo'riqchisi emish. «Avesto» miflarida esa muqaddas it o'lgan kishilarning ruhi narigi dunyoga o'tadigan «Chinvat ko'prigi»ning posboni sifatida talqin etilgan. J.Yusupovning ko'rsatishicha, o'tmishda biror kishi jon berayotgan bo'lsa, uning to'shagi yoniga itni olib kelganlar. Bu odat «sagdid», «it nazari» deb yuritilgan. Shuning uchun qadimda o'lganlarning jasadi maxsus boqilgan itlarga em qilingan. Yoki Strabon sug'diylar va baqtriyaliklarning udumlari haqida yozar ekan, ularning qarigan kishini o'lmasa ham tirik holda itlarga berganlari haqida ma'lumot beradi. Qadimgi odamlar go'yo shu yo'l bilan marhumlar ruhini narigi dunyoga o'tkazib

yuborganlar. Bunga qadimgi insonlarning totemistik ishonch-e'tiqodlari, ya'ni o'lgan kishi ruhining totem hayvonga ko'chib, qayta tirilishi haqidagi tushunchalari asos bo'lgan. Qadimgi qablardan it bosh suyagi topilgan. Ossuariylarga it tasviri solingan. Skiflar tirik itni o'lgan egasiga qo'shib dafn etganlar. It bu dunyoda ham, u dunyoda ham o'z egasining tinchini ta'minlaydigan qo'riqchi sifatida talqin etilgan. Demak, **it irillatar** odati orqali qiz-yigitning ruhi kelinlik va kuyovlik olamiga ko'chirilishi ko'zda tutiladi. Alpomish dostonida Barchinoyga uylangan Hakimbekning chimildiqqa kirishdan oldin bir qator udumlarga duch kelgani bejiz tasvirlanmagan. Chunki bu udumlar xalqimiz turmush tarziga xos bo'lib, hanuzgacha saqlanib kelayotir. Ularning doston syujetida aks ettirilishi orqali esa asar voqealarining hayotiyliigi va ishonarliligi ta'minlangan. Masalan, dostonida kuyov Hakimbek har zamon salom solib, uydan ichkariga, chimildiqqa kirib o'tirgach, kelin yangalar uning izzatini qilib, oldiga dasturxon solishi va dasturxonga turli noz-ne'matlar, ayniqsa, qo'ylarning to'shini pishirib olib kelib qo'yishi tasvirlangan. Bu udum xalq orasida to'qqiz tovoq deb yuritiladi. Kuyov o'z navkarlari bilan bu noz-ne'matlardan, taomlardan xo'p yeb, to'yib olishadi. Buning ustiga ularga turli sarpolar ham beriladi. Shundan so'ng kuyovnavkarlar chiqib, tarqalishadi. Ular ketgach, kelinning yangalari va dugonalari uni kuyovning qoshiga olib kelmoqchi bo'lib, ko'plashib kelinni o'rtaga olib, baxmal qoplangan oq kigizga solib, qadimgi rasmimizni qilamiz , deb ko'tarib , qizni chimildiqqa olib kiradilar. Bundan keyin xotinlar rasmini qilib: choch siypatar , qo'l ushlatari udumlarini amalga oshirishadi. Ayniqsa, bunda bir necha yangalarning sho'xlik qilib, kuyovga luqmalar tashlashi unga ruhan ko'tarinkilik bag'ishlagan. Shu kecha kelin va kuyov tonggacha o'zlariga atalgan baxmal o'tovda yolg'iz qoldirilgan. Dostonida Barchinoyning kelin qilib Qalmoqdan Boysunga uzatilishi voqeasi tasvirlanar ekan, bunda yana bir o'zbekona urflarimizdan biri □ Erga ko'rsatdi rasmi nomi tilga olingan. Unga ko'ra, kelinning otasi bir qo'yni so'yib, kuyovni chaqirib, ziyofat bergan, unga va yaqinlariga sarpolar ulashgan. So'ngra yo'lga

otlangan kelinkuyovlarga ota oq fotiha bergan. Dostonda Boysarining Barchinni uzatayotgandagi soʻzi, ota sifatidagi olqishi shunday berilgan:

Jonim bolam, Barchin, koʻngling boʻlmasin,

Otam qoldi, deb sen xafa boʻlmasin,

Koʻp yashagin, koʻp yilgacha oʻlmasin,

Yaxshilik koʻr, yomonlikni koʻrmasin....

Tengquringga qoʻshdim senday bolamni.

Barchin yangalari kuzatuvida oltmish norga sepini ortib Hakimbek yurtiga uzatiladi. U oʻzbekona anʼanalarga muvofiq, yoʻl boʻyi yigʻlab ketadi. Folklorshunos D.Oʻraevaning qayd etishicha: *Bizning odatimizga koʻra, nikoh toʻyida uzatilayotgan qizning yigʻlamasligi el ichida uyat sanaladi. Hatto u sevgan kishisiga oʻz xohishi bilan tegayotgan, toʻy yaqin qarindoshlariningroziligi bilan boʻlayotgan boʻlsa-da, baribir, yigʻlashi shart hisoblanadi. Sababi, turkiy xalqlar orasida «yigʻi jon ato etadi» degan ibtidoiy tushuncha mavjud boʻlgan. Shu vajdan hozirgacha qizlik ruhiyati oʻlayotgan bir lahzada qizlarning yigʻi qilishi ularning ayollik ruhiyati bilan qayta tirilishi uchun zarur hisoblanadi va bu hol maʼlum bir hayot bosqichida oʻziga xos marosim-ritual tarzida shakllangan . Qolaversa, kareliyaliklarda nikoh toʻyi arafasida, aniqrogʻi, bir hafta oldin uzatilayotgan qizni yigʻlatuvchi maxsus yigʻichi ayol- itkettaja yollangan. U kelinni yigʻlashga majbur qilgan. Bu vazifani shimoliy Kareliyada kelinning eng yaqin ayol qarindoshi bajargan. Shuningdek, begona yigʻlatuvchi chaqirilishi ham mumkin boʻlgan. Boysun eliga yaqinlashib qolganda Alpomish kelayotganlarning izzat-ikrom bilan kutib olinishini taʼminlash maqsadida otasiga bir xabarchi, yaʼni chopagʻonchi joʻnatdi. Chopagʻonchi otiga qamchi urib, kim yoʻliqsa, unga xabar beradi. Boyboʻrining manziliga borib, Alpomish xabarini yetkazadi. Boyboʻri chopagʻonchiga keltirgan xushxabari uchun yaxshi sarpolar inʼom etib, suyunchi beradi. Darhol yurtga xabar beriladi. Yoʻlda baqan solaylik va evaziga toʻppi, roʻmol olaylik, deb koʻpgina qizlar kelinning yoʻlini toʻsadi. Kelinni oʻrtaga olib, oʻtqizmaydi, yoʻlda baqan soladi. Suqsur kaniz ularga toʻppi, roʻmol berib, kelinni olib oʻtadi. Kelin*

yoʻliga baqan solish, arqon tortish kabilar ham azaliy odatlarimizdan biridir. Bu kelinni uzatib kelayotganda kelin sepidan ulush (sovgʻa-salom) olish uchun yoʻlini toʻsish odatidir. Aslida bu odat orqali tushirib kelinayotgan kelinchakning qizlik olami (bir olam) chegarasidan ayollik olami (oʻzga olam) chegarasiga oʻtayotgani bildiriladi. Barcha yigʻilib, kelinni koʻrishga shoshiladi. Bir nechalar tomga chiqib qaraydi. Elu xalqqa bu ovoza boʻladi. Hamma qarindoshlar yigʻilib kela boshlaydi. Shunday qilib, xursandchilik, diydorlashuv, oʻyin-kulgi boshlanib ketadi. Xullas, Alpomish dostoni nikoh toʻyi jarayoni bilan bogʻliq bunday maishiy hayot detallariga juda boy. Ularni keng qamrab olganligi jihatidan doston oʻziga xos qomusiy ahamiyat kasb etadi. Doston maishiy hayot detallariga juda boy. U real hayot epizodlarini keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Unda xalqimizning maishiy hayotida muhim oʻrin egallagan oilaviy-maishiy marosimlar badiiy ifoda etilgan. Mazkur rasm-rusmlar turkiy xalqlarning barchasida bugungi kunga qadar hatto koʻplab xalqlarda hozirgi kunda ham amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa oʻrnida aytishimiz joizki, har bir xalqning oʻzining tarixan shakllanib kelgan anʼana va urf odatlariga ega. Shu jumladan oʻzbek va qoraqalpoq xalqi ham yillar davomida shakllanib taraqqiy topib, uygʻunlashib kelgan, oʻziga xos etnografik tarixiga ega. Ilmiy izlanishlardan anglashiladiki, urf-odatlar bilan bogʻliq leksika tarkibi til birliklariga qaraganda ancha murakkabdir. Lingvokulturemalar oʻzida lingvistik, madaniy, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni mujassamlashtiradi. Ularning tarkibi belgi-maʼno-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular toʻgʻri va koʻchma maʼnosidan farqli oʻlaroq, inson madaniyati va tili darakchisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A.Ashirov. “Oʻzbek xalqining qadimiy eʼtiqod va marosimlari” A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashiriyoti, 2007 yil 74-bet.
- 2.Назаров Н. Лакайлар этнографияси.-Т..2007.-Б.6 4. Дала ёзувлари. Наманган вилояти Косонсой тумани ХУжакургон кишлога. 2002 йил

- 3.Абаишн С.Н. Кокил //Ислам на территориям бывшей Российской, империи: Энциклопедический словарь. Вып.4. М., 2003,- С.44
- 4.Shoabdurahmonov SH. O'zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati («O'zbek shevalari leksikasi»). – Т.: Fan, 1966. – В. 16-17;
5. Shoabdurahmonov SH. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. – Т.: Fan, 1962. –В. 202–205.